



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O‘zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta‘minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta‘minlashda parlamentning o‘rni va mas‘uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o‘ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda ekologik sohadagi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o‘zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta‘minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o‘rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta‘minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo‘nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

- birinchidan**, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash;
- ikkinchidan**, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;
- uchinchidan**, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;
- to‘rtinchidan**, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;
- beshinchidan**, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;
- oltinchidan**, o‘simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;
- yettinchidan**, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;
- sakkizinchidan**, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;
- to‘qqizinchidan**, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIY DARAJADA AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	24
Teshaboyev To'liq Zakirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
TAKOMILLASHTIRISH: YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	37
Shamsiddin Allayarov	
EKOLOGIYA SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	45
S. Sh. Utemuratova	



EKOLOGIYA SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

S. Sh. Utemuratova

Yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi deputati

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi ekologik qonunchiligi tizimi, uning konstitutsiyaviy asoslari, ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro ekologik huquq normalarining milliy qonunchilikka joriy etilishi tahlil qilingan. Shuningdek, ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiya qilish zarurati ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: ekologik qonunchilik, ekologik huquq, atrof-muhit, ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslar, Ekologiya kodeksi.

Abstract. The article analyzes the system of environmental legislation of the Republic of Uzbekistan, its constitutional foundations, the regulatory legal acts governing environmental relations, and the incorporation of international environmental law norms into national legislation. It also provides a scholarly justification for the need to systematize and codify environmental legislation.

Keywords: environmental legislation, environmental law, environment, environmental security, natural resources, Environmental Code.

Аннотация. В статье проанализированы система экологического законодательства Республики Узбекистан, его конституционные основы, нормативно-правовые акты, регулирующие экологические отношения, а также внедрение норм международного экологического права в национальное законодательство. Кроме того, научно обоснована необходимость систематизации и кодификации экологического законодательства.

Ключевые слова: экологическое законодательство, экологическое право, окружающая среда, экологическая безопасность, природные ресурсы, Экологический кодекс.

KIRISH

Dunyoda atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish hamda ekotizimlarga yetkazilayotgan zarar nafaqat alohida davlatlar, balki butun insoniyat oldida turgan eng dolzarb global muammolardan biriga aylandi. Bugungi kunda iqlim o'zgarishi, cho'llanish, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi va atmosfera havosining ifloslanishi barqaror rivojlanishga jiddiy tahdid solmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP)ning 2024-yilgi hisobotida ta'kidlanganidek, insoniyat oldida global haroratning 1,5 °C dan oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik yoki 2 °C darajadagi iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish kabi murakkab vazifalar turibdi [1]. Shu bois ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida samarali huquqiy mexanizmlarni shakllantirish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda tabiiy resurslardan barqaror foydalanishga qaratilgan keng ko'lamli huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi [2].

Shuningdek, 2025-yilning mamlakatimizda «Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yili» deb e'lon qilinishi hamda «O'zbekiston – 2030» strategiyasini mazkur yilda amalga oshirishga oid davlat dasturining qabul qilinishi ekologik sohani rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanganini ko'rsatadi [21]. Bundan tashqari, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ekologik holatni yaxshilash, «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda ekologik nazoratni kuchaytirishga qaratilgan vazifalar belgilangan [16].



Ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tashkil etadi [2]. Konstitutsiya qoidalari ekologik huquqning asosiy prinsiplarini belgilab berib, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar uchun huquqiy poydevor vazifasini bajaradi.

Ayni paytda mamlakatimizda ekologik munosabatlarni kompleks tartibga soluvchi yagona Ekologiya kodeksi mavjud emas. Shu sababli ekologik qonunchilik atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish hamda alohida tabiiy obyektlarni muhofaza qilishga oid qonunlar, kodekslar va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar tizimidan iborat.

Ekologik qonunchilikni huquqiy tartibga solish predmetiga ko'ra shartli ravishda uch asosiy yo'nalishga ajratish mumkin. Bunday tasnif huquq nazariyasida tarmoq ichidagi huquq institutlarini tizimlashtirishda qo'llaniladigan yondashuvlarga asoslanadi. Chunki ekologik huquq bir vaqtning o'zida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy obyektlarni saqlash hamda tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq turli mazmundagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Mazkur munosabatlar huquqiy tartibga solish maqsadi va obyektiga ko'ra bir-biridan farq qilganligi sababli ekologik qonunchilik quyidagi yo'nalishlarga ajratiladi.

Birinchi yo'nalish – atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi umumiy ekologik qonunchilik hisoblanadi. Ushbu qonunlar ekologik sohada davlat siyosatining asosiy prinsiplari, ekologik boshqaruv, ekologik xavfsizlik, ekologik nazorat, ekologik monitoring, ekologik baholash hamda huquqni qo'llashning umumiy mexanizmlarini belgilaydi. Shu bois ular ekologik qonunchilik tizimining umumiy huquqiy asosini tashkil etadi. Mazkur yo'nalishga «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida» [5], «Ekologik nazorat to'g'risida» [10], «Ekologik audit to'g'risida» [15], «Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida» [22], «Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida» [17], «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida» [6], «Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida» [23] hamda «Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida»gi [8] qonunlar kiradi. Ularning umumiy xususiyati shundaki, mazkur qonunlar muayyan tabiiy resursni emas, balki butun atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi va huquqiy mexanizmlarni tartibga soladi.

Ikkinchi yo'nalish – tabiiy komplekslar va ekologik obyektlarni muhofaza qilishga oid qonunchilik bo'lib, uning asosiy maqsadi biologik xilma-xillikni, tabiiy ekotizimlarni hamda alohida tabiiy obyektlarni saqlash va muhofaza qilishdan iborat. Mazkur qonunlarda tabiiy obyektlardan foydalanishdan ko'ra ularni muhofaza qilish vazifasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ushbu yo'nalishga «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida» [9], «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida» [11], «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida» [12], «O'rmon to'g'risida» [13], «Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida» [20] hamda «Qishloq xo'jaligi o'simliklarini zararkunanda, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida»gi [7] qonunlar kiradi. Ushbu qonunlarni birlashtiruvchi asosiy mezon – muayyan tabiiy obyekt yoki ekotizimni muhofaza qilishga qaratilgan maxsus huquqiy rejimni belgilashidir.

Uchinchi yo'nalish – tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik hisoblanadi. Ushbu qonunlar suv, energiya va boshqa tabiiy resurslardan samarali, barqaror hamda ekologik talablarga muvofiq foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Bunda resurslardan foydalanish huquqi bilan bir qatorda ularni muhofaza qilish, qayta tiklash va kelajak avlodlar manfaatlarini ta'minlash prinsiplari ham mustahkamlangan. Mazkur guruhga Suv kodeksi [24], «Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida» [14] hamda «Organik mahsulotlar to'g'risida»gi [18] qonunlar kiradi.

Ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishda xalqaro huquq normalari ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 300 dan ortiq xalqaro shartnoma va konvensiyalar amal qilmoqda [3]. O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning to'laqonli subyekti sifatida mazkur sohadagi ko'plab xalqaro hujjatlarga qo'shilgan. Jumladan, mamlakatimiz Ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha Vena konvensiyasi, Monreal protokoli va unga kiritilgan London hamda Kopengagen tuzatishlari, Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi BMTning Asosiy konvensiyasi va Kioto protokoli, Parij bitimi, Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiya, Bazel konvensiyasi, Ramsar konvensiyasi, Yo'qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to'g'risidagi (CITES) konvensiya, Ko'chmanchi yovvoyi hayvon turlarini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya, Cho'llanishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya, Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya hamda boshqa xalqaro hujjatlar ishtirokchisi hisoblanadi. Keyingi yillarda Orxus konvensiyasi, Stokgolm konvensiyasi, Kartaxena protokoli va O'simliklar karantini va himoyasi bo'yicha xalqaro konvensiyaga qo'shilish milliy ekologik qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mazkur xalqaro shartnomalar milliy ekologik qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro ekologik huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalarini milliy huquq tizimiga implementatsiya qilish, ekologik munosabatlarni zamonaviy xalqaro standartlar asosida tartibga solish hamda O'zbekistonning xalqaro majburiyatlarini bajarishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ekologik qonunchilikning o'ziga xos xususiyati shundaki, u faqat qonunlar bilan cheklanib qolmaydi. Mazkur sohada qonunlar bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari,



Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda vakolatli davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari qabul qilinib, qonunlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, ekologik qonunchilik tarkibiga davlat standartlari, texnik reglamentlar, sanitariya va ekologik normativlar hamda tabiatni muhofaza qilish sohasidagi boshqa texnik-me'yoriy hujjatlar ham kiradi. Ushbu hujjatlar davlat ekologik nazoratini amalga oshirish, ekologik monitoringni tashkil etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ekologik sohada amal qilayotgan normativ-huquqiy va texnik-me'yoriy hujjatlarning umumiy soni 5 mingdan ortiq bo'lib, bu ekologik qonunchilikning ko'p bosqichli va murakkab huquqiy tizim ekanligidan dalolat beradi [4].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida ekologik qonunchilik milliy huquq tizimi hamda xalqaro ekologik huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari asosida takomillashtirilmoqda. Biroq ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy va texnik-me'yoriy hujjatlarning ko'pligi hamda ularning turli darajalarda qabul qilinganligi mazkur sohadagi huquqiy tartibga solishni tizimlashtirish va yagona yondashuv asosida rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiya qilish, uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, raqamli davlat boshqaruvi mexanizmlarini keng joriy etish hamda huquqni qo'llash amaliyotining samarali mexanizmlarini shakllantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona va barqaror foydalanish, atrof-muhit muhofazasini kuchaytirish hamda fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. United Nations Environment Programme. *Emissions Gap Report 2024: No More Hot Air... Please! With a Massive Gap Between Rhetoric and Reality, Countries Draft New Climate Commitments*. – Nairobi: UNEP, 2024. – DOI: 10.59117/20.500.11822/46404. – URL: <https://www.unep.org/resources/emissions-gap-report-2024> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. – URL: <https://lex.uz/docs/6445145> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
3. Дворецкий М. Ю., Краснослободцева Н. В. Уголовно-правовые проблемы борьбы с экологическими преступлениями: понятие, общая характеристика и виды // Вестник Тамбовского университета. Серия: Политические науки и право. – 2016. – № 2 (6). – С. 62–68.
4. Fayziyev Sh. X. Atrof-muhit muhofazasi dastklari // Hayot va qonun. – 1998. – № 4. – B. 38–41.
5. O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni, 1992-yil 9-dekabr, 754-XII-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-107115> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
6. O'zbekiston Respublikasining «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni, 1996-yil 27-dekabr, 353-I-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-55561> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
7. O'zbekiston Respublikasining «Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni, 2000-yil 31-avgust, 116-II-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-24780> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
8. O'zbekiston Respublikasining «Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida»gi Qonuni, 2000-yil 31-avgust, 120-II-son. – URL: <https://lex.uz/docs/26166> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
9. O'zbekiston Respublikasining «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi Qonuni, 2004-yil 3-dekabr, 710-II-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-415135> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
10. O'zbekiston Respublikasining «Ekologik nazorat to'g'risida»gi Qonuni, 2013-yil 27-dekabr, O'RQ-363-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-2304953> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
11. O'zbekiston Respublikasining «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni, 2016-yil 19-sentabr, O'RQ-408-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-3029502> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
12. O'zbekiston Respublikasining «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni, 2016-yil 21-sentabr, O'RQ-409-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-3030362> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
13. O'zbekiston Respublikasining «O'rmon to'g'risida»gi Qonuni, 2018-yil 16-aprel, O'RQ-475-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-3687211> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).



14. O'zbekiston Respublikasining «Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni, 2019-yil 21-may, O'RQ-539-son. – URL: <https://lex.uz/docs/4346831> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
15. O'zbekiston Respublikasining «Ekologik audit to'g'risida»gi Qonuni, 2021-yil 15-mart, O'RQ-678-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-5331133> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-5841063> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
17. O'zbekiston Respublikasining «Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, 2022-yil 12-yanvar, O'RQ-745-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-5819317> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
18. O'zbekiston Respublikasining «Organik mahsulotlar to'g'risida»gi Qonuni, 2022-yil 25-aprel, O'RQ-766-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-5980334> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2026-yil 16-fevral, PF-21-son. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050769> (murojaat qilingan sana: 28.07.2026).
20. O'zbekiston Respublikasining «Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida»gi Qonuni, 2024-yil 2-fevral, O'RQ-903-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-6787881> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «“O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi Farmoni, 2025-yil 30-yanvar, PF-16-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-7369703> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
22. O'zbekiston Respublikasining «Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida»gi Qonuni, 2025-yil 24-fevral, O'RQ-1036-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-7397280> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
23. O'zbekiston Respublikasining «Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida»gi Qonuni, 2025-yil 7-iyul, O'RQ-1073-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-7616051> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).
24. O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksi, 2025-yil 30-iyul. – URL: <https://lex.uz/docs/-7655343> (murojaat qilingan sana: 27.07.2026).



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

